

Ota onalar o‘qituvchilar bilan sherik bo‘lib, bolaning o‘ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda ishlaydi. Bu aloqa bolaga tegishlilik va xavfsizlik hissing uyg‘otadi.

Faol ishtirok etish uchun Ota-onalar muntazam ravishda o‘qituvchilar bilan muloqot qilishlari, ta’lim faoliyatiga qo‘shilishlari va uyda o‘quv muhitini ta’minlashlari mumkin. Ushbu strategiyalarni amalga oshirish bolaning o‘shiga yordam beradi, ta’limni umumiy mas’uliyat va yanada boyituvchi tajribaga aylantiradi.

Xulosa: erta bolalik davridagi ta’lim bolaning rivojlanishida, kognitiv qobiliyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi bosqich bo‘lib, hissiy o‘sh, ijtimoiy ko‘nikmalar, ijodkorlik, jismoniy farovonlik va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Savodxonlik va hisoblash ko‘nikmalarini tarbiyalashdan tortib, o‘yin orqali ijodkorlikni rivojlantirishgacha, bu bolalarni akademik va hayotga tayyorlaydigan yaxlit yondashuv hisoblanadi. Ota onalarning faol ishtiroki ushbu ta’limning ta’sirini yanada kuchaytiradi. Ushbu shakllanish yillarida kiritilgan sarmoyalar har tomonlama barkamol, o‘ziga ishongan va qobiliyatli shaxslar shaklida o‘z mevasini beradi. Erta bolalik davridagi ta’limni qabul qilish shunchaki tanlov emas; istiqbolli kelajak uchun mustahkam poydevor qo‘yish majburiyatidir

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Xamidov E.E. ta’lim samaradorligini oshirish
- Qodirov U.Z. Abdumajidov A.A. bolalar fiziologiyasi
- Sodiqov. B. B. Yosh bolalarda sifatli ta’lim uyg‘unligi
- Karimova M.V. bolalar psixologiyasi

**BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING MATEMATIK
TUSHUNCHALARINI BOYITISHDA MANTIQUIY MASALALARNING
AHAMIYATI**

Iskandarova Jasmina Jonibek qizi

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang’ich ta’lim
yo’nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich sinf matematika darslarida o’quvchilarni mantiqiy masalalar yechishda bilim, ko’nikma va malakalarini oshirishi va ularga chukur bilim berish to’grisida ma’lumotlar berilgan.

Kalit soʻzlar: matematika, masala, amaliy, mantiqiy, qobiliyat, fikrlash, koʻnikma.

Kirish

Matematik masalalar yechish matematika oʻqitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani oʻzlashtirishni tasavvur ham etib boʻlmaydi. Matematikada masalalar yechishning nazariyasini amaliyotga tadbqiq qilishning muhim yoʻlidir. Masalalar yechishning boshlangʻich sinflarda oʻrganiladigan u yoki bu nazariy materiallarni oʻzlashtirish jarayonida muhim rolni va oʻquvchilarni fikrlash qobiliyatlarini oʻstiradi. Masalalar amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu degani soʻz har bir yangi tushunchani tarkib toptirish har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan uning qoʻllanishini talab qiladigan u yoki bu masalani yechish bilan amalga oshadi.

Asosiy qism: Bola maktabdagi mashgʻulotlarning birinchi kunidayoq masala bilan uchrashadi. Oʻquvchilarning qanday xayotiy tajriba va bilimga ega ekanini aniqlash maqsadida oʻqituvchi oʻquvchiga eng sodda masala orqali murojaat qiladi. Masalan: "Sening toʻrtta qalaming bor edi, sen yana bitta qalam olding. Sendagi qalamlar nechta boʻldi?" Matematik masalalar oʻquvchilarga matematik tushunchalarni toʻgʻri shakllantirishga, uni oʻrab turgan muhitni chuqurroq anglashga, shu bilan birga masalalar echishga bola tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi.

Tadqiqot maqsadi: Eng asosiylaridan yana biri masalalar echish orqali oʻquvchi toʻrtala arifmetik amal va ularning xossalarini puxta oʻrganadi. Matematika tili rivojlanadi. qisqasi, masala bu nazariya bilan amaliyotni bogʻlovchi muhim zvenodir. Arifmetik amallarning mazmunini amallar orasidagi boglanishlarni amal komponentlari bilan orasini ochib berishda, har xil miqdorlar orasidagi boglanishlar bilan tanishishda mos soda masalalardan foydalaniladi. Sodda masalalar murakkab masalalarni yechish uchun zarur boladigan bilimlar malakalarini va konikmalarini tarkib toptirish uchun asosiy bolib xizmat qiladi. Masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini

rivojlantirishning foydali vositasi bolib odatda oʻz ichiga ayrim bilimlarni oladi. Bu bilimlarni qidirish masala yechuvchidan analiz va sintezga murojaat qilish faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hakovolarni talab qiladi. Bilishning bu usullarni orgatish matematika oqitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot obekti va usullari: Masalalarni yechishda predmetga bolgan

qiziqish rivojlanadi, umuman mustaqillik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilishlik rivojlanadi. Bolalar masala tuzilishi bilan ikkinchi yoki uchinchi mashgulotda tanishadilar. Ular masalada shart va savol borligini bilib olishadi, masala shartida kamida ikkita son bolishligi alohida takidlanadi. Masala ustida islah uning mazmunini ozlashtirishdan boshlanadi. Masala mazmunini yaxshi tushunish uchun oquvchilarni har biriga uning matnini eshittiribgina qolmay, balki uni mustaqil oqib chiqishlari ham kerak. Agar masala sharti bosh qotiradigan bolsa oquvchilarga masala mazmunini mustaqil oylab korshlari uchun bir-uch minut vaqt berish maqsadiga muvofiqdir. Boshlangich sinflar matematika darslarida arifmetik amallar xossalari va usullarini organishda oziga xos bolgan qonuniyatlarni kopaytirish amaliga teskari amal sifatida muvofiqlikda organilishini talab etsa, ikkinchi tomondan maxsus hollarni tahlil etishda amallardagi xos xususiyatlar bilan taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa oquvchilarni idroklashini ostirishga ijobiy tasir korsatadi. Boshlangich sinf matematika darslarida masalalar yechishda o'quvchilarda hisoblash malakalarini o'stirish orqali matnli masalalar yechishdagi qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadida masalalar to'plamlari, multimedia va grafik vositalarni tayyorlash yolga qoiyilsa boshlangich matematik ta'lim samaradorliugini oshirishda ijobiy natijalar beradi deb hisoblaymiz.

Natiya va muhokamalar: Boshlang'ich sinflarda masalalarni o'rganish yangi tushunchalarni shakllantirish, sodda masalarni yechishdan murakkablarni yechishga o'tish yordamida amalga oshiriladi. Bunda qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lishga doir har xil sodda masalalar ya'ni bir xil qo'shiluvchilarning yig'indisini topishga karrali va teng bo'laklarga bo'lishlarga doir sonni bir necha kattalashtirish va kichiklashtirishga oid masalalar sonlarni taqqoslashga amallarning noma'lum konponentlarni topishga doir soddamasalalar shuningdek turli murakkab masalalar shu jumladan keltirib yechiladigan masalalar, ikki ko'paytuvchining yig'indisini topishga doir va unga teskari masalalar yig'indisini so'ngra ko'paytirish bo'lishga keltiradigan va boshqa masalalarni ko'rib chiqamiz. Agar berilgan masala o'zining murakkabligi bilan sinfda yechilgan masalalarga mos yoki o'xshasa u holda o'quvchilar taklif qilingan masalaning yechilishi yo'lini mustaqil topishga o'rgatish kerak. Shu maqsadda o'quvchilar masalalar yechishga yaqinlashishning eng sodda umumiy usullarini egallashlari lozim.

Xulosa: Mantiqiy tafakkurni shakllantirish boshlang'ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallarni shakllantirish imkoniyatlaridan foydalanish uchun har bir tushunchaning mohiyati, mazmuni va uning o'quvchilar amaliy tajribasiga asoslanilishi hamda ko'rgazmalilikning keng yo'lga qo'yilishi, taqqoslash, xulosa chiqarish va konkretlashtirishga o'rgatish

bo‘lish usullarining o‘rganilishi bilan birga umuman boshqa amallardagi o‘xshash qonuniyatlarni taqqoslash asosida keltirib chiqarishga hamda mashq va misollarni yechishni tahlil qilish asosida o‘rgatilishi, xatolar ustida ishlash va bularning barchasidan samarali foydalanish asosini tashkil etadi. Boshlang‘ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallar tushuncha o‘qitilishini arifmetik amallar natijalar va komponentlari orasidagi bog‘lanishning ahamiyatini hisobga olib, matematika o‘qituvchilarining boshlang‘ich ta‘lim matematika kursini o‘qitishda o‘quvchilarda fikrlash ko‘nikmalari, mashqlar yechishda mantiqiy asoslash va fikrlashni talab etadigan biz ishlab chiqqan tavsiyalardan foydalanishlari ularning umuman matematik tayyorgarligi, qiziqish va qobiliyatlari rivojining oshishiga xizmat qiladi. Kelgusida bu soha bo‘yicha boshlang‘ich sinflar matematika darslarida bo‘lish tushunchasini o‘qitishning har bir sinf bo‘yicha konkret uslubiy tavsiyalari ishlab chiqilsa, o‘quvchilarda hisoblash malakalarini o‘stirish orqali tenglama va tengsizliklar, matnli masalalar yechishdagi qo‘llanilishi usullarini sistemali va ketma-ketlilik asosida o‘qitilishiga va bunda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadida mashqlar to‘plamlari, multimedia va grafik vositalarni tayyorlash yo‘lga qo‘yilsa boshlanqich sinflarda matematik ta‘lim samaradorligini oshirishda ijobiy natijalar beradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qo‘llanma.) Toshkent. —SHarq|| 2005 yil.,
2. Bikbaeva N.U, R.I.Sidelnikova, G.A. Adambekova. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (O‘rta maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.) Toshkent. —O‘qituvchil|| 2006 yil.
3. Jumaev M.E, Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. (O O‘YU uchun) Toshkent. —O‘qituvchil|| 2014 yil.
- “Maktabgacha ta‘lim” jurnali maqolalari 4. Bikboeva.N.U. Yangiboeva .YA. Ikkinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. —O‘qituvchil|| 2012 yil.
5. Bikboeva.N.U. Yangiboeva E.Y. Uchinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. —O‘qituvchil|| 2015 yil.
6. Jumaev M.E, Tadjieva Z.G_. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (OO‘YU uchun darslik.) Toshkent. —Fan va texnologiya|| 2015 yil.
7. www.natlib.uz internet kutubxona 8. www.ziynet.uz materiallari